

PAPER

## BO'LAJAK PEDAGOGLARNING ILMIY-FALSAFIY DUNYOQARASHNI RIVOLJANTIRISH MODELI

Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti stajyor o'qituvchisi

\* xusnidayuldasheva244@gmail.com

### Abstract

Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirish muammolarini tahlil etishning zarurati birinchidan, axborot-ta'lim muhiti sharoitida axborotlarni izlash, tahlil qilish, saralash, tizimlashtirish, eslab qolish, saqlashning ularning kasbiy faoliyatida alohida ahamiyat kasb etishi, ikkinchidan, o'zining bo'lg'usi kasbiy faoliyatida ta'lum oluvchilarining ilmiy-falsafiy bilish, falsafiy dunyoqarashni namoyon qilish faolligini tashkil eta olishi belgilanadi.

Buning uchun esa, bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ko'ribch qish va shu asosida model yaratish va modelni loyihalash imkoniyatlari yoritib berildi.

**Key words:** Talaba, ta'lum, pedagog, ilmiy-falsafiy, dunyoqarash, muammolar, rivojlantirish, model.

### Kirish

Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirish muammolarini tahlil etishning zarurati birinchidan, axborot-ta'lim muhiti sharoitida axborotlarni izlash, tahlil qilish, saralash, tizimlashtirish, eslab qolish, saqlashning ularning kasbiy faoliyatida alohida ahamiyat kasb etishi, ikkinchidan, o'zining bo'lg'usi kasbiy faoliyatida ta'lum oluvchilarining ilmiy-falsafiy bilish, falsafiy dunyoqarashni namoyon qilish faolligini tashkil eta olishi belgilanadi.

Buning uchun esa, bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ko'ribch qish va shu asosida model yaratish va modelni loyihalash imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Dastlab "pedagogik shart-sharoit" tushunchasiga aniqlik kiritiladi. "Shart-sharoit" tushunchasi bizning tadqiqotimizda nimagadir bog'liq holat, biror-bir jarayon amalga oshadigan muhit sifatida talqin qilinadi.

Demak, pedagogik shart-sharoit ta'lum maqsadiga erishish uchun professor-o'qituvchi va talabalarning o'zaro birlgiligidagi faoliyatiga asoslangan maxsus tashkil etilgan muhiti aks ettirishi lozim. "Pedagogik shart-sharoit" tushunchasi bilan birga tadqiqotchilar "tashkiliy-pedagogik sharoit", "didaktik shart-sharoit", "psixologik-pedagogik shart-sharoit" atamalarini ham qo'llashadi. Shuningdek, ko'pchilik tadqiqotlarda "shart-sharoit" tushunchasi bilan birga "imkoniyat" so'zini qo'llash

ham ko'p ko'zga tashlanadi. Masalan, S.Zoxidova o'z tadqiqotida "bosholang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirishning didaktik imkoniyatlari" tushunchasi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini loyihalashtirish, interfaol ta'limga ustuvorlik berish asosida kasbiy-didaktik moslashuvni jadallashtirish, innovasion kompetentlikni qaror toptirish mazmuni, samarali shakl, metod va vositalari majmuuni o'zida ifoda etishi [1] haqidagi xulosaga kelgan.

Pedagogik shart-sharoit "tizimning shaxsiy va jarayon bilan bog'liq jihatlariga ta'sir ko'rsatuvchi ta'lumiylar va moddiy-makonga yo'naltirilgan muhit imkoniyatlari majmui hamda uni samarali tashkil etish va rivojlantirishni ta'minlovchi" pedagogik tizim komponentidir [2].

N.V.Ippolitov pedagogik shart-sharoitlarning quyidagi tasnifini ajratib ko'rsatgan:

- ta'lumiylar hal etish uchun o'quv jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar;
- pedagogik jarayon subyetlari shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik shart-sharoitlar;
- o'quv jarayonining texnologiya, shakl, metod va vositalarini aniqlab beruvchi didaktik shart-sharoitlar [3].

Muallifning fikriga qo'shilgan holda tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik shart-sharoitlarni pedagogik shart-sharoitning komponentlari sifatida qabul qilish maqsadga

muvofig, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot obyekti bilan bog'liqlikda pedagogning kasbiy faoliyati, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning o'ziga xosliklariga ham tavsif berib o'tamiz hamda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tuzilmasida kognitiv kompetentlikning o'rni va rolini bayon etamiz.

## Adabiyotlar tahlili

Bir qator olimlar (VV.Krayevskiy [4], YE.A.Kryukova [5], VV.Serikov [6]) tomonidan kasbiy ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni qaror toptirish yo'llari va ularning mohiyati borasidagi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular o'z ishlarida kasbiy pedagogik ta'larning asosiy vazifasi, o'qituvchining mavjud ilmiy bilimlar bilan qurollantirishdangina ibrat emas, balki uning shaxs sifatida o'z mavqeini belgilab olishi, o'zligini anglashi, ijtimoiy muhitga nisbatan munosabatini shakllantirishda yordam berishi lozim bo'lgan vosita sifatida qaraydilar. Ta'lim oluvchilarga bilim berishda o'z fikrini yoqlash, mavhumlik va avtoritar mavqeni egallashga urinish hissidan xalos bo'lishni ta'minlash lozim bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashnining yuqori darajada bo'lishiga erishish quyidagi holatlarda mavjudligini taqozo etadi:

– talabaning kasbiy va shaxsiy shakllanish darajasi bu yo'lda tashkil etilgan jarayonning umumiyy mohiyatini yorituvchi falsafiy tizim samaradorligiga chambarchas bog'liq;

– talabaning kasbiy jihatdan shakllantirishni ta'minlovchi ilmiy-falsafiy kichik tadqiqot jarayonlarining tashkiliy boshqaruvi maqsadga muvofig tarzda takomillashib boradi. A.Piligin bo'yicha ilmiy faoliyat va falsafiy bilish strategiyalarni o'zlashtirish jarayoni quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1) kognitiv strategiyalar (fanga doir va umumiy)ning talabalarning samarali tahlil etishi;

2) mavjud maqbul kognitiv strategiyalar(fanga doir va umumiy)ning samarali refleksiyasi;

3) talabalarning individual va moyoriy kognitiv strategiyalarni taqqoslav olishi;

4) fanga doir va umumiy (shaxsiy-bilish tajribasi) individual kognitiv strategiyalarni maqsadli va mustaqil chuqurlashtirib borishni amalga oshirish [7].

A.A.Piliginning fikriga qo'shilgan holda ilmiy-falsafiy bilish faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni majmuaviy dinamik tashkil etish sifatida strategiyalarning mohiyatini tushunish quyidagi ketma-ketlikdan ibrat:

- maqsad va unga erishish mezonlarining o'zaro mosligi;
- natijalarga erishish bo'yicha harakatlar;
- faoliyat jarayoniga tuzatishlar kiritish;
- olingan natijalarini qayd etish [8].

Ana shunga muvofig ilmiy-falsafiy strategiyalarning quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– motivasion – muammolarni anglash, faoliyat maqsadini belgilash;

– jarayonga doir – bilish faoliyatini bevosita loyihalash va amalga oshirish;

- refleksiv – faoliyatni baholash, natijalarini qayd etish.

## Tahlil va natijalar

Maqolada bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantrish modeli muhokama qilingan. Ushbu modelning asosiy maqsadi – pedagogik jarayonda zamonaviy ilmiy va falsafiy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishdir.

Ilmiy-falsafiy yondashuvning ahamiyati shundan ibratki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat aniq

fanlar bo'yicha bilimlarga, balki ularning falsafiy tafakkurini rivojlantrishga ham bog'liq bo'lib, ilmiy yondashuv muayyan muammolarni tahlil qilish, ularning mohiyatini tushunish va innovatsion echimlar topishga yordam beradi. Falsafiy tafakkur esa o'qituvchining dunyoqarashini kengaytirib, ularning pedagogik faoliyatida refleksiv y ondashuvni rivojlantrishga xizmat qiladi.

Maqolada taqdim etilgan model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

– **Nazariy asos** – ilmiy va falsafiy bilimlar integratsiyasining mohiyati va zaruriyati.

– **Metodik qism** – bu jarayonda foydalilaniladigan pedagogik texnologiyalar va usullar.

– **Amaliyot** – bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy tafakkurini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar va treninglar.

– **Natijaviy baholash** – model samaradorligini aniqlash mezonlari.

Quyidagi Innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ilmiy va falsafiy b ilimlarni y etkazish m odelning z amonaviyligi va samaradorligini ta'minlaydi:

– Interfaol usullar (masalan, falsafiy munozaralar, ilmiy tajribalar, tahliliy tafakkur mashqlari) bo'lajak o'qituvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

– Axborot texnologiyalari orqali .

Modelni qo'llash natijasida bo'lajak pedagoglarning ilmiy va falsafiy d unyoqarashi a ncha k engayadi. O'qituvchilarning tanqidiy tafakkuri va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanadi hamda pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarni joriy qilish imkoniyati ortadi, kasbiy kompetensiya oshib, o'qituvchilarning zamonaviy pedagogika talablariga moslashish darajasi yuqori bo'ladi. Modelning joriy etilishi natijasida bo'lajak pedagoglar nafaqat o'z fanini chuqur tushunadigan, balki zamonaviy ilmiy-falsafiy tafakkurga ega mutaxassislar bo'lib shakllanadilar.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy d unyoqarashini rivojlantrish m odeli ularning kasbiy tayyorgarligida muhim omil hisoblanadi. Ushbu model ilmiy bilimlar, falsafiy t afakkur, t anqidiy fi krlash va innovatsion yondashuvni o'z ichiga oladi. Mazkur model asosida pedagoglarning dunyoqarashi tizimli tarzda shakllanadi, ya'ni ilmiy bilimlarga asoslangan, tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislar yetishib chiqadi. Bu jarayon falsafiy b ilimlar, m etodologik a soslar v a a maliy mashg'ulotlar bilan boyitiladi.

Shuningdek, modelda ilm-fan va texnologiyalar rivoji, madaniy-gumanistik yondashuvlar ham muhim o'r'in tutadi. Bu esa pedagoglarga zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ilmiy-falsafiy t afakkurga y o'naltirish i mkonini b eradi. Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy d unyoqarashini rivojlantrish modeli ularning nafaqat kasbiy mahoratini oshirishga, balki jamiyatdagi ta'lim sifatining yaxshilanishiga ham xizmat qiladi.

## Foydalangan adabiyotlar

1. Зохиева С.Р. Бўлажак бошлангич синф ўқитувчиларини касбий ижтимоийлаштириш жараёнларини такомиллаштиришнинг дидактик имкониятлари: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дис. – Самарқанд, 2019. – 48 б.
2. Ипполитова Н.В. Анализ понятия “Педагогические условия”: сущность, классификация / Н.В. Ипполитова, Н.С. Стерхова // General and Professional Education. –2012. – № 1. С. 11.

3. Ипполитова Н.В. Анализ понятия “Педагогические условия”: сущность, классификация / Н.В. Ипполитова, Н.С. Стерхова // General and Professional Education. –2012. – № 1. С. 12.
4. Краевский В.В. Общие основы педагогики. – М.: Академия, 2003. – 256 с.
5. Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация. Монография. –Волгоград. Перемена, 2000. – 97 с.
6. Сериков В.В. Личностный подход в образовании: Концепция и технологии. Монография. – Волгоград: Школа, 1994. – 152 с.
7. Пилигин А.А. Познавательные стратегии школьников: от индивидуализации – к личностно-ориентированному образованию: Монография / А.А. Пилигин. – М.: Твои книги, 2012. – 27 с.
8. Пилигин А.А. Познавательные стратегии школьников: от индивидуализации – к личностно-ориентированному образованию: Монография / А.А. Пилигин. – М.: Твои книги, 2012. – 199 с.